

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA ONA TILI FANINI O'QITISHDA
DIDAKTIK O'YINLAR - TURLI O'YINLAR ORQALI BOLALARNING SO'Z
BOYLIGINI OSHIRISH, TO'G'RI TALAFFUZNII SHAKLLANTIRISH**

Ochilova Sanamjon Omangaldi qizi

Samarqand davlat universiteti

Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi BT-24-04 guruh 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14956967>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda didaktik o'yinlarning ahamiyati, ularni tashkil etish va o'tkazish metodikasini yoritib beradi. Metodik tavsiyada didaktik o'yinlarning o'quvchilar rivojlanishidagi o'rni, ularning psixologik jihatlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, didaktik o'yinlarni samarali tashkil etishda o'qituvchining roli va zamonaviy texnik vositalarning ahamiyati ochib berilgan. Unda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan didaktik o'yinlar tavsiya etilgan bo'lib, ular o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kalit so'zlar, boshlang'ich sinf, Ona tili, didaktik o'yinlar, o'quvchilar rivojlanishi, psixologik jihatlar.

**DIDACTIC GAMES IN TEACHING MOTHER LANGUAGE TO PRIMARY
STUDENTS - INCREASING CHILDREN'S VOCABULARY AND FORMING
CORRECT PRONUNCIATION THROUGH VARIOUS GAMES**

Abstract. This article highlights the importance of didactic games in teaching the native language in primary grades, the methodology for their organization and conduct. The methodological recommendation focuses on the role of didactic games in the development of students, their psychological aspects. It also reveals the role of the teacher and the importance of modern technical means in the effective organization of didactic games. It recommends didactic games that correspond to the age characteristics, interests and needs of students, and it is justified that they have a positive impact on the intellectual, emotional and social development of students.

Keywords: keywords, primary grade, Native language, didactic games, student development, psychological aspects.

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ ШКОЛЬНИКОВ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ - УВЕЛИЧЕНИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА ДЕТЕЙ И**

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВИЛЬНОГО ПРОИЗНОШЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ РАЗЛИЧНЫХ ИГР

***Аннотация.** В данной статье освещено значение дидактических игр при обучении родному языку в начальных классах, методика их организации и проведения. В методических рекомендациях основное внимание уделяется роли дидактических игр в развитии учащихся, их психологическим аспектам. Также раскрывается роль преподавателя и значение современных технических средств в эффективной организации дидактических игр. Рекомендуются дидактические игры, соответствующие возрастным особенностям, интересам и потребностям учащихся, и обосновано, что они оказывают положительное влияние на интеллектуальное, эмоциональное и социальное развитие учащихся.*

***Ключевые слова:** ключевые слова, начальный класс, родной язык, дидактические игры, развитие учащихся, психологические аспекты.*

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Ona tili fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan biridir. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, to'g'ri talaffuzni shakllantirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Ushbu metodik tavsiya boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ona tili darslarida didaktik o'yinlardan samarali foydalanish bo'yicha yo'riqnoma vazifasini o'taydi.

Prezidentimiz pedagog kadrlarga aytganlaridek, “Men sizlarning timsolingizda o‘z hayotini dunyodagi eng ulug‘ va olijanob ishga – yangi avlod tarbiyasiga bag‘ishlagan, o‘z kasbiga sodiq va fidoyi insonlarni ko‘raman. Bugun sizlar ta’lim-tarbiya berayotgan, qalbini, ongini ezgulik bilan to‘ldirayotgan millionlab farzandlarimiz ertaga Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari bo‘lib bizning safimizga kiradi. Vatanimiz, xalqimiz sizlarning bunday olijanob xizmatlaringizni hech qachon unutmaydi. O‘qituvchilik kasbini e‘zozlash, uning mehnatini qadrlash bundan buyon ham e‘tiborimiz markazida bo‘ladi. Yangilangan Konstitutsiyamizda o‘qituvchi maqomini mustahkamlab qo‘ydik. Kelgusida shu asosda, albatta, ko‘p ishlarni amalga oshiramiz” [1].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston boshlang‘ich ta'lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Yangi davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda, o‘quvchilarning ta'lim natijalarini baholashga yondashuvlar o‘zgarmiqda. Bularning barchasi alohida fanlarni o‘qitish usullarini, shu jumladan Ona tili fanini o‘qitishni qayta ko‘rib chiqish va yangilashni talab

qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy bolalar yuqori texnologiyali axborot jamiyatida yashaydilar. Internet va raqamli texnologiyalar ta'sirida bolalarning ma'lumotni idrok etish tezligi ham o'zgardi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida didaktik o'yinlarning ahamiyati katta bo'lib, ular o'quvchilarning psixologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'yin faoliyati orqali o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi hamda takomillashadi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. O'yin jarayonida o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, mavjud bilimlarini mustahkamlaydilar, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Psixolog olimlar L.S.Vigotskiy va D.B.Elkonin ta'kidlashicha, o'yin faoliyati orqali bolaning aqliy rivojlanishi jadallashadi [3]. O'yin davomida o'quvchilar yangi axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'yin jarayonida o'quvchilar turli his-tuyg'ularni boshdan kechiradilar, o'z emotsiyalarini boshqarishni o'rganadilar. O'yinlar o'quvchilarda qiziqish, xursandchilik, muvaffaqiyat tuyg'usini uyg'otadi va ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, didaktik o'yinlar o'quvchilarda stress va zo'riqishni kamaytirishga, emotsional zo'riqishni bartaraf etishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'yin davomida o'quvchilar jamoa bo'lib ishlashni, o'zaro hamkorlik qilishni, fikr almashishni, bir-birlarini hurmat qilishni o'rganadilar. Ular muloqot madaniyatini egallaydilar, o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda etish, boshqalarning fikrlarini tinglash va hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Psixolog olim E.O. Smirnova ta'kidlaganidek, o'yin faoliyati bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishini ta'minlaydi [5].

O'zbekiston psixolog olimlari ham didaktik o'yinlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanishidagi o'rnini tadqiq etganlar. Jumladan, psixolog olima G.B. Shoumarovanning fikricha, didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish jarayonlarini faollashtiradi, ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, professor N.S. Safayev didaktik o'yinlarni boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishidagi muhim omil sifatida ta'riflaydi [6].

Didaktik o'yinlarning samaradorligini oshirish uchun ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash, uyushtirish va o'tkazish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun harakatli, rolli, ijodiy o'yinlar maqsadga muvofiqdir.

O'yinlar davomida o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini nazorat qilishi, ularning individual xususiyatlarini hisobga olishi, o'yinlarni o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlariga mos ravishda differentsiatsiya qilishi zarur.

Didaktik o'yinlarni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Multimedia vositalari, elektron o'quv materiallari, virtual o'yin muhitlarini qo'llash orqali o'quvchilarning o'yin faoliyatini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Shu bilan birga, didaktik o'yinlarni fanlararo integratsiya asosida uyushtirish o'quvchilarning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning individual yutuqlari va rivojlanishini kuzatish, o'yin faoliyatini tahlil qilish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Bu jarayon o'qituvchiga har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini, qobiliyatlari va imkoniyatlarini aniqlash, ularning o'sishini ta'minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish imkonini beradi. Quyida o'quvchilarning individual yutuqlari va rivojlanishini kuzatish usullari, o'yin faoliyatini tahlil qilish yo'llari haqida tavsiyalar berilgan.

Kuzatish va qayd etish O'qituvchi o'yin faoliyati davomida o'quvchilarni kuzatishi, ularning xatti-harakatlarini, muloqot uslubini, o'yinga bo'lgan qiziqishini qayd etishi lozim. Kuzatish natijalarini maxsus jurnal yoki bloknot+ga yozib borish tavsiya etiladi. Kuzatish jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlari, kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlanadi hamda ularning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi [7].

O'quvchilarning o'z-o'zini baholashi O'yin faoliyatida o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarga o'z yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilish, o'ziga baho berish imkoniyatini yaratishi lozim. Buning uchun o'yin yakunida o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish, ularning fikrlarini so'rash, o'z faoliyatlarini baholashga undash tavsiya etiladi [8].

O'yinlarni tahlil qilish O'yin faoliyatini tahlil qilish o'qituvchiga o'quvchilarning rivojlanishini kuzatish, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlash imkonini beradi. O'yinlarni tahlil qilishda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish lozim:



Ota-onalar bilan hamkorlik O'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatishda ota-onalar bilan hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar farzandlarining uyda o'ynagan o'yinlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari haqida qimmatli ma'lumotlar bera oladi. O'qituvchi ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazishi, ularning fikr-mulohazalarini o'rganishi, farzandlari rivojlanishidagi ijobiy va salbiy jihatlarni birgalikda tahlil qilishi lozim.

Shaxsiy rivojlanish kartasi O'quvchilarning individual yutuqlari va rivojlanishini kuzatishda shaxsiy rivojlanish kartasini yuritish tavsiya etiladi. Ushbu kartada o'quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari, bilim va ko'nikmalari, ijtimoiy-emotsional rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi. Shaxsiy rivojlanish kartasi o'quvchining maktabni tugatgunga qadar olib boriladi va uning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi [8].

Psixodiagnostika metodlari O'quvchilarning individual rivojlanishini chuqurroq o'rganish uchun psixodiagnostika metodlaridan foydalanish mumkin. Psixologik testlar, so'rovnomalar, proyektiv metodikalar o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi, o'ziga baho berishi kabi jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Psixodiagnostika natijalari o'qituvchiga o'quvchilar bilan individual ishlarni tashkil etish, ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

Pedagogik konsilium alohida e'tiborga muhtoj o'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish va qo'llab-quvvatlashda pedagogik konsilium muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik konsilium tarkibiga o'qituvchi, psixolog, logoped, defektolog kabi mutaxassislar kiradi.

Ular birgalikda o'quvchining rivojlanishidagi muammolarni aniqlaydi, individual yondashuvlar va korreksion ishlarni belgilaydi hamda o'quvchining rivojlanishini doimiy kuzatib boradi.

Refleksiya O'yin faoliyatini tahlil qilishda refleksiya metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

Refleksiya o'quvchilarning o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarni aniqlash, kelgusidagi rejalarni belgilash imkonini beradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan refleksiv suhbatlar o'tkazishi, ularni o'z-o'zini baholashga, rivojlantirishga undashi lozim [9].

Monitoring O'quvchilarning individual rivojlanishini tizimli va uzluksiz kuzatish monitoring asosida amalga oshiriladi. Monitoring o'quv yili davomida o'quvchilarning o'zlashtirishi, yutuqlari, qiziqishlari, xulq-atvori kabi jihatlarni doimiy ravishda kuzatish va qayd etishni nazarda tutadi. Monitoring natijalari o'qituvchiga o'quvchilar rivojlanishidagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni aniqlash, zarur choralarni ko'rish imkonini beradi [10].

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning individual yutuqlari va rivojlanishini kuzatish, o'yin faoliyatini tahlil qilish boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

O'qituvchi turli usul va yondashuvlardan foydalangan holda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini o'rganishi, ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi, ta'lim jarayonini o'quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashi zarur. Bunda kuzatish, tahlil, hamkorlik, psixodiagnostika kabi metodlar qo'l keladi. Eng muhimi, o'quvchilarning rivojlanishi ularning qiziqishlari, iste'dodlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi, ularning yuksak ma'naviyatli, mustaqil va ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratilishi lozim.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyev, Maktablarda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi, 28.08.2023, <https://president.uz/oz/lists/view/6622>
2. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика назарияси. - Тошкент: Фан ва технология, 2008. - Б. 288.
3. Sattorov T.Q. Ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanish metodikasi. - Toshkent: Moliya, 2003. - B. 43.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2006. - B. 104.
5. Олимов Қ.Т. Педагогик технологиялар. - Тошкент: Фан ва технология, 2011. - Б. 275.

6. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. - Тошкент: Фан, 2006. - Б. 87.
7. Қодиров В.Р., Бегимкулов У.Ш., Абдуқодиров А.А. Ахборот технологиялари. - Тошкент: Ўқитувчи, 2002. - Б. 54.
8. Ишмухамедов Р.Ж. Таълимда инновацион технологиялар. - Тошкент: Истеъдод, 2010. - Б. 31.
9. Makhmudovna, R. D. (2024). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF DETERMINING THE TALENT OF PRESCHOOL EDUCATORS ON THE BASIS OF A VARIATIVE APPROACH. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 13(01), 65-68.
10. Rakhmonova, D. M. (2023). The Concept of Pedagogical TECHNOLOGY, Its Definitions and Differences From the Methodology. International Journal on Integrated Education, 5(2), 74-78.
11. Mahmudovna R. D. Introducing innovations in The Preschool Education System With Talented Children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
12. Рахмонова Д. Introducing innovations in The Preschool Education System With Talented Children //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
13. Рахмонова Д. WAYS TO DETERMINE TALENTED CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
14. Raxmanova, D. U. (2021). BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BARCHA TOIFALARI BILAN ISHLASH METODIKASI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 2), 574-579.
15. Rakhmanova, D. U. (2024). INTRODUCTION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE INTO PSYCHOLOGY. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(9), 116-121.
16. Rakhmanova, D. (2023). The role of neurography in art therapy. Science and innovation, 2(B3), 73-76.
17. Rakhmanova, D. (2023). PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF OPTIMIZING STUDENTS'INTELLECTUAL AND COMMUNICATIVE SKILLS IN PROFESSIONAL TRAINING. Science and innovation, 2(B5), 254-257.
18. Rakhmanova, D. (2023). PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF STUDENTS'INTELLECTUAL ACTIVITY OPTIMIZATION. Science and innovation, 2(B11), 478-483